

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQA TA'LIMI VOSITASIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISH

Nomozova marjona olimovna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

jismoniy madaniyat va sanat fakulteti

Musiqa mahorati va madaniyati kafedrası

70110601- musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi magistranti.

Email: nomozovamarjona759@gmail.com

O'qituvchi Gadoyeva Muborak Jumaqulovna

Annotatsiya: Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonda bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish masalasi har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni musiqa ta'limi vositasida shakllantirish bosqichlari, shuningdek musiqa ta'limining bolalarda o'z-o'zini anglash, hissiy holatni boshqarish va empatiya sifatlarini rivojlantirishdagi o'rni hamda ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, maktabgacha yosh, musiqiy ta'lim, musiqa terapiyasi, hissiy rivojlanish, empatiya, musiqiy mashg'ulotlar, musiqiy idrok, ritm va temp.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В условиях стремительного развития современного общества вопрос развития эмоционального интеллекта у детей становится как никогда актуальным. В данной статье раскрываются этапы формирования эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста посредством музыкального обучения, а также рассматривается роль и

значение музыкального образования в развитии самоосознания, управления эмоциональными состояниями и формирования эмпатии у детей.

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, дошкольный возраст, музыкальное образование, музыкотерапия, эмоциональное развитие, эмпатия, музыкальные занятия, музыкальное восприятие, ритм и темп.*

DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH MUSIC EDUCATION

Abstract: *In today's rapidly developing world, enhancing the emotional intelligence of children has become more relevant than ever. This article explores the stages of developing emotional intelligence in preschool-age children through music education, as well as examines the role and significance of musical instruction in fostering self-awareness, emotional regulation, and empathy in children.*

Keywords: *emotional intelligence, preschool age, music education, music therapy, emotional development, empathy, musical activities, musical perception, rhythm and tempo.*

KIRISH. Hozirgi kunda yurtimizda maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2024-yil 30-sentabr kuni Prezidentning "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko'ra, maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- kichik va o'rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ hamda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish.

Shuningdek, 2025-yil 9-sentyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Bu

tashabbuslarning barchasi ta'lim tizimini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim sohasining o'rni naqadar muhim ekanini yana bir bor ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagogikada shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, emotsional intellektni shakllantirish ham muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektning rivojlanishi ularning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi, shaxslararo munosabatlari va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar aynan erta yoshda shakllanadi va maqsadli dasturlar asosida rivojlantirilganda bolalarning umumiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.[4:2]

So'nggi yillarda ta'lim tizimida emotsional intellektni o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Emotsional intellekt (EQ) bolaning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyatga ega. Emotsional intellekt nazariyasini rivojlantirgan olim Daniel Goleman EQni quyidagi besh komponentga ajratadi:

1. O'z-o'zini anglash
2. O'z-o'zini tartibga solish
3. Motivatsiya
4. Empatiya
5. Ijtimoiy ko'nikmalar

Daniel Goleman tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar EQning ahamiyati IQ bilan teng darajada ekanligini ko'rsatadi. IQ insonning aqliy rivojlanishini ifodalasa, EQ shaxsning ijtimoiy va hissiy rivojlanish darajasini belgilaydi.[2:2]

Agar emotsional intellektni maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirishga e'tibor qaratilsa, bolalar jamiyatga moslashish, o'z hissiyotlarini anglash hamda boshqalarning hissiyotlarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishda musiqa ta'limining o'rni beqiyosdir. Masalan, bolalar eshitayotgan musiqa yoki qo'shiqlarning mavzusi, ritmi va tempi orqali o'z hissiyotlarini ifodalash,

atrofdagilarning hissiyotlarini anglash, muruvvat va hamdardlik tuyg'ularini shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar. Ushbu jarayonning sifatli tashkil etilishida musiqa o'qituvchisi muhim rol o'ynaydi. To'g'ri metodik yondashuv, musiqiy terapiya elementlari, turli musiqiy o'yinlar va ijodiy mashg'ulotlar orqali emotsional intellektni shakllantirish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

XULOSA. Maktabgacha yoshdan emotsional intellektni rivojlantirish bolalarning hissiy, ijtimoiy va shaxsiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yoshda shakllangan emotsional ko'nikmalar bola psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. O'z-o'zini boshqarish, empatiya va stressga chidamlilikning erta shakllanishi keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatga zamin yaratadi. Demak, emotsional intellektni erta rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *"Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi PF-152-son Farmoni. 2024.
2. Channell M. *Daniel Goleman's Emotional Intelligence*. The TSW Blog, 2025.
3. Goleman D. *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books, 1995.
4. No'monova Z.M. *Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari va samaradorligi*. "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.